

HUSNIXAT O'QITISH METODIKASINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Namangan viloyat Namangan tumani

27-umumiy o'rta ta'lif maktabi

boshlang'ich sinf oliy toifali o'qituvchisi

Xolmatova E'zozxon Rahmanovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi, o'quvchilarning chiroylarini yozuv malakalarini hosil qilishda ishtirok etuvchi psixofiziologik funksiyalar, chiroylarini yozuvga o'rgatishda o'qituvchidan talab etiladigan malakalar haqida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan bir qatorda, husnixatga o'rgatishning metodik shartlari ham yorqin tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: husnixat, xattotlik, yozuv malakalarini, metodik shartlar, psixofiziologik funksiyalar, yozuv texnikasi.

Yozuv, barchaga ma'lum bo'lganidek, kishilarning o'zaro fikr almashishi va bilimlarni egallashning qudratli vositasi ekanligi barchaga ma'lumdir. Yozma nutq uzoq saqlanadi, shu sababli avlodlarni bir-biriga bog'laydi. Yozuv tufayli kishi fikri, insoniyat qo'lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi va abadiy yashaydi. O'zbek xalqi uzoq asrlik tarixida yaratib qoldirgan madaniy merosida chiroylarini yozuvga o'rgatish, ya`ni xattotlik san`ati alohida o`rin egallaydi. Qo`lda ko`chirilgan, yozilgan har bir asar san`at mo`jizasi kabi nodir sanalgan. Bir qancha olimlar va fozil kishilar yoshlikdan xattotlik san`atini egallab, keyinchalik kotiblikda ham mashxur bo'lganlar. Ular faqat o`z asarlarini emas, balki boshqa mualliflar asarlarini ham ko`chirganlar. Masalan, Hofiz Sherziy Xusrav Dexlaviyning "Xamsa"sinini ko`chirgan. Alisher Navoiyning mohir xattot ekanligi tarixiy manbalardan ma'lum. Zahiriddin Muhammad Bobur arab alifbosida turkiy xalqlarga moslab "Xatti Boburiy"deb atalgan alifboni yaratgan. Eski maktabda chiroylarini yozuvga alohida ahamiyat berilgan, ammo husnixat mashg`ulotlari uchun zarur qoidalar yuzaki tushuntirilgan. Masalan, chiroylarini yozuvga

o`rgatish paytida faqat qalamni qanday ushslash qoidalari eslatilgan. Gigiyenik qoidalalar talab etilmagan. Hatto yozish vaqtida ham nafas olish ta`qiqlangan. Bola xat yozish vaqtida chap oyog`ining to`pig`i ustida o`tirgan, o`ng oyog`ini esa tizzasidan bukib turgan. Maktabda “Husnixat” qoidalari o`rgatuvchi birdan bir qo'llanma “Mufradot” bo`lgan. Domlalar yozishni o`rgatish va husnixat mashq qildirishda shu kitobdan foydalanganlar. Husnixatga o`rgatishning birdan bir yo`li ko`chirib yozish ko`nikmasini hosil qilish bo`lgan. Ison o`z fikrini boshqa kishilarga og'zaki va yozma shaklda yetkazishi mumkin. Nutqning bu ikki shaklining o'xshash va farqh tomonlari mavjud bo`lib, ular o'z o'rnida afzalliklarga ega. Og'zaki nutq tovush chiqarib aytiladi va eshitilish uchun mo'ljallanadi. U kishilarning nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog'och, teri, metall, qog'oz kabilarga ko'rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo'yiladi. Yozuv kishilarning o'zaro fikr almashishi va bilimlami egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlami bir-biriga bog'laydi, uzoq davrlar mobaynida saqlanadi. Yozuv tufayli kishilar fikri, insoniyat qo'lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixatga o`rgatish ehtiyoji yuqoridagi talablar asosida yuzaga keladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixat bilan yozishga o`rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalami amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini, o'qitish usullarini, yozuvga o`rgatishning gigeyenik shartlarini, o'quvchilaming yozuvidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish, kamchiliklaming yuzaga kelish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Boshlang`ich sinflarda o'quvchilarni husnixat bilan yozishga o`rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini, o'qitish usullarini, yozuvga o`rgatishning

gigeyenik shartlarini, o`quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarni tahlil qilish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur. Chiroyli yozuvga o`rgatish umumiylidik qoidalar bilan birga yozuv malakasini shakllantiruvchi qoidalarni ham o`z ichiga oladi. Umumiylidik qoidalar, takroriylik ko`rgazmalilik yosh va o`ziga xos xususiyatlarni hisobga olish, tushunarilik, onglilik husnixat qoidalarni amalga oshirishda juda muhimdir. Ayniqsa, ko`rgazmalilik prinsipi chiroyli yozuv malakasini singdirishda muhim rol o`ynaydi. Husnixat bilan yozish, birinchidan, o`quvchilarda mehnat madaniyatini tarbiyalaydi. Topshiriqlarni toza, aniq va madaniyat bilan bajarish ko`nikmasini hosil qiladi. Ikkinchidan, dastxatga pala-partish va be`etibor munosabatda bo`lish o`quvchilarning imloviy savodsizligini keltirib chiqaradi. Natijada o`quvchilar qiladigan ishlarini o`ylab o'tirmay bajaraveradilar, o`z hato va kamchiliklarini ham o`ylab ko`rmaydigan bo`lib qoladilar. Uchinchidan, husnixat bilan to`g`ri yozish ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lib, turli rasmiy hujjatlami yuritishda kishilar unga ehtiyoj sezadi. Husnixat bilan yozilmagan, to`ldirilmagan hujjatlami o`qishga kitobxonning ko`p vaqt sarflashiga to`g`ri keladi. Vaholonki, mактабда har kuni o`qituvchi 30 talab o`quvchilar daftарини tekshiradi. O`qib bo`lmaydigan dastxat bilan yozilgan xat o`qituvchining ko`p vaqtini sarf bo`lishiga olib keladi. Aniq va ravon qilib yozilgan dastxat o`qituvchming ishini yengillashtiradi, keyingi ta`limiy maqsadlarini amalga oshirishlari uchun imkoniyat yaratadi. Husnixat va uni O`qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi. Husnixat va uni o`qitish metodikasi boshqafanlar bilan uzviy aloqada bo`lib ulaming natijalariga tayanadi. Amaliy fan hisoblangan husnixat va uni o`qitish metodikasi til o`rganish jarayoni hamdir. Yozish uchun tanlangan til faktlari ayni vaqtida adabiy tilni o`zlashtirib borishga yordam beradi. Pedagogik fanlar qatorida husnixat darslari ham ta`lim-tarbiya berish vazifasini ham bajaradi. Husnixat darslarida barkamol shahs tushunchasi ichiga tozalik, tartiblilik tarbiyasi kiradi. Husnixat va uni o`qitish metodikasi ham pedagogikaning ta`lim-tarbiya birligi tamoyiliga amal qiladi. Husnixat va uni o`qitish metodikasining asoslaridan yana biri psixologiyadir. Psixologiya his, tasavvur, fikr, intilish, istak, havas, qobiliyat kabi tushunchalar haqida ma`lumot beradi. Husnixatga o`rgatishda bola psixologiyasidagi

yuqoridagi holatlariga tayanib ish ko'rildi, o'quv materiali tanlanadi, sinflar bo'yicha taqsimlanadi. Husnixat va uni o'qitish metodikasi fiziologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarix fanlari bilan ham uzviy aloqadadir. O`quvchining yozuv jarayonidagi fiziologik holati qo'l harakatlari, yozganlarini to`g`ri, aniq tallafuz qilishda fiziologiyaga tayansa, yozuv uchun tanlangan matnni tahlil qilishda adabiyotshunoslik materiallariga, yozuvning paydo bo`ishi, uning jamiyatdagi tutgan o`rnini tushunishda esa tarix fanining yutuqlariga asoslangan holda ish ko`radi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. G`ulomov M. "Xusnixatga o`rgatishning bahzi masalalari", "O`qituvchi" nashriyoti, Toshkent 1969 y.
2. G`ulomov M. "Boshlang`ich sinf o`quvchilarini soddalashtirilgan harflar bilan xusnixatga o`rgatish", "O`qituvchi" nashriyoti, Toshkent 1970 y.
3. G`ulomov M. Xusnixat metodikasi. Pedagogika bilim yurtlari o`quvchilari uchun qo'llanma. "O`qituvchi" nashriyoti, Toshkent 1976 y.
4. G`ulomov M. Xusnixat "2 sinf uchun". "O`qituvchi" nashriyoti, Toshkent